



Kengash qarorlari bekor qilindi

4-betda o'qing ↗



Raislik faoliyatim may oyida tugaydimi?

5-betda o'qing ↗

INSON va qonun

2025-YIL
1-APREL
SESHANBA
№ 13
(1477)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/



XABAR

ADLIYA JAMOATCHILIKKA HISOBOT BERDI

ADLIYA vazirligida “Ochiq adliya” dasturi doirasida tashkil etilgan “Adliya jamoatchilikka hisobot beradi” media tadbir doirasida “Ochiq eshiklar” kuni hamda matbuot anjumanini bo‘lib o’tdi.



2024-yilda amalga oshirilgan ishlar, 2025-yilda mo‘ljallangan asosiy islohotlar va ustuvor yo‘nalishlar haqida adliya vaziri o‘rinbosari Sh. Rabiyev axborot berdi.

Hisobot davrida huquq ijodkorligi yo‘nalishida vazirlik tashabbusi bilan 286 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalari ishlab chiqildi. 2 ming 93 ta loyiha huquqiy ekspertizadan o‘tkazilib, 1 ming 731 tasi yoki 83 foiziga ijobiy xulosa berildi, 362 tasi yoki 17 foizi konseptual e’tirozlar bo‘lgani sababli qaytarildi.

“Madad” ijtimoiy-huquqiy loyihasi doirasida de-novlik nogironligi bor ayol Dilorom Yo‘ldoshevaning oddiy hunarmanddan tadbirdirkorga aylanishiga ko‘maklashildi. D. Yo‘ldoshevaning matonati yuksak e’tirof etilib, BBC ning 2024-yilda dunyoning ilhomlantiruvchi 100 ayoli ro‘yxatiga kiritildi, Prezident farmoniga asosan “Mardlik” ordeni bilan mukofotlandi. Ushbu jarayonlarni o‘zida aks ettirgan “Matonat” filmi “Oltin humo” mukofoti bilan taqdirlandi.

Vazirlikning asosiy 208 ta funksiyasidan 106 tasi, ya’ni 51 foizini raqamlashtirishga erishildi. Natijada birgina qog‘oz sarfi kamayib, 9 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ iqtisod qilindi. Vazirlik tashabbusi bilan sun‘iy intellekt yordamida huquqiy masalalarga javob topishga ko‘maklashadigan yagona platforma “LexAI” ishga tushirildi.

Huquqni qo‘llash va inson huquqlari yo‘nalishidagi ishlar ko‘lami yanada kengaydi. Fuqarolar manfaatida 1 trillion 153 milliard so‘m undirildi, 14 mingdan ortiq noqonuniy hujjatlar (3 ming 32 ta hokim qarorlari) bekor qilindi, 23 mingdan ortiq hujjatlar qonunchilikka muvofiqlashtirildi.

Vazirlik tashabbusi bilan “O‘zboshimchalik bilan egallab olingen yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

Davlat xizmatlarini ko‘rsatish yo‘nalishida 2024-yil davomida “Hammasi bir joyda” tamoyilini hayotga tatbiq etish bo‘yicha ishlar davom ettirilib, davlat xizmatlari markazlarida ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari turlari soni 408 taga yetkazildi (hозirda davlat xizmatlar soni 437 taga yetdi).

Intellektual mulk sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2024-yil davomida 21 ming 573 ta (2023-yilda 15 ming 47 ta) intellektual mulk obyektlari ro‘yxatga olindi. Xususan, Chust pichoqlari, Jizzax somsasi, Xorazm qovunlari, Samarqand noni va Olot somsasi geografik ko‘rsatkichlari amaliy yordam berish orqali ro‘yxatdan o’tkazildi.

Yuridik xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha 21 mingdan ortiq davlat organi va tashkilotlarining 8,8 millionta yuridik tusdagi hujjatlariga huquqiy xulosalar taqdim etilib, qonunchilikka nomuvofiq bo‘lgan 500 mingga yaqin hujjat salbiy xulosa bilan rad etildi.

Yuridik kadrlarni tayyorlash borasidagi ishlar samaradorligi ortdi. Toshkent davlat yuridik universiteti Times Higher Education reytingida 401-o‘rinni, UI – Greenmetric 2024da 270-o‘rinni egallagan bo‘lsa, RUR World Teaching Ranking 2024da 373-o‘rin bilan “Bronza universitetlar ligasi”ga kiritildi, QS xalqaro reytingida 4 yulduzli universitet sifatida qayd etildi.

Respublikamiz bo‘yicha 217 ta maktabda “Huquq sinflari” tashkil etildi. Mustaqil huquqiy bilimlar olish imkonini beruvchi “Huquq maktabi” mobil ilovasi ishga tushirildi.

Matbuot anjumanida jurnalistlarni qiziqtirgan barcha savollarga javob berildi.

O‘z muxbirimiz

2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



1-apreldan nimalar o'zgaradi?



Eksklyuziv huquqlar bekor qilinadi

2025-YIL 1-apreldan quyidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha eksklyuziv huquqlari bekor qilinadi:

- "O'zbekekspertiza" AJ va uning hududiy bo'linmalarining xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkka sertifikat berish bo'yicha;
- "O'zInjiniring" loyiha instituti investitsiya loyihalarining loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha;
- "Milliy PR-markazi" DUKning O'zbekiston turizm salohiyatini targ'ib qilishga yo'naltirilgan xorijiy kompaniyalarning prodyuserlik va reklama xizmatlarini, xorijiy teleradiokompaniyalar va boshqa ommaviy axborot vositalarining reklamalari, reportajlari va boshqa roliklarini tayyorlash va translyatsiya qilish bo'yicha;
- "Sag agro MTP" MCHJning yong'oq ishlab chiqaruvchilarga agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan mexanizatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha;
- "O'zbekiston standartlar instituti" davlat muassasasining milliy standartlarni shartnoma asosida boshqa tillarga tarjima qilish bo'yicha.



"Investor kun'lari tashkil etiladi

1-apreldan har oyda 1 ta hududda "investor kun'lari tashkil etiladi hamda hududdagi OTM-lar bilan hamkorlik dasturlari yo'lga qo'yiladi.

Subsidiya ajratiladi

Prezident farmoniga ko'ra, 2025-yil 1-apreldan "Yoshlar daftari", 1-sentabrdan esa "Ayollar daftari" jamg'armalari orqali to'lanadigan bir martalik moddiy yordamlar o'rniiga kam ta'minlangan oilalar uchun nazarda tutilgan nafaqalar to'lanadi.

1-maydan "Ijtimoiy daftarlari" jamg'armalari hisobidan davolash va jarrohlik amaliyotini o'tkazish xarajatlari Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi orqali moliyalashtiriladi.

1-apreldan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida muhtoj oilalarga bir marta beriladigan moddiy yordam o'rniiga ushbu hududlarda yashovchi Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalarga uy-joyida artezian quduq qazish, suv nasoslarini o'rnatish hamda ichimlik suv filtrlarini xarid qilish xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish tartibi joriy etiladi.



G'oliblar ta'limgan sayohatiga yuboriladi

Maktablarda "Iqtidor" badiiy havaskorlik jamoalari tashkil etiladi; jamoalar o'rtaida "Iqtidor maktab ansambl" respublika tanlovi o'tkaziladi.

Tanloving respublika bosqichi g'oliblari xorijiy davlatlarga ta'limgan sayohatiga yuboriladi.

"IT-visa" beriladi

Joriy yil 1-apreldan OTMlarning axborot texnologiyalari sohasidagi fan nomzodi, falsofa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo'lgan xorijlik professor-o'qituvchilarga ham "IT-visa" beriladi.



Oila shaklidagi bolalar uylari ochiladi

Samarqand va Toshkent shaharlari-da eksperiment tariqasida autsorsing asosida Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan boquvchisini yo'qotgan to'liq bo'limgan oilalar, mehnatga layoqatli a'zosi bo'limgan oilalar, ikki va undan ortiq nogiron a'zolari mavjud oilalarda o'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga kunduzgi qatnov asosida qarab turish xizmati ko'rsatiladi;

ijtimoiy yetimlikning oldini olish, yetim va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'limgan bolalarga individual yondashuv asosida oilaga yaqin muhitda g'amxo'rlik ko'rsatish hamda tarbiyalash xizmatini ko'rsatish maqsadida mahallalarда oila shaklidagi kichik hajmli bolalar uylari tashkil etiladi.

Nargiza SHARIPOVA,
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi
mas'ul xodimi

HUQUQIY XABARNOMA

FAXRIY UNVON TA'SIS ETILDI

2025-YIL 19-martda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ekolog" faxriy unvonini ta'sis etish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.



Qonunga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ekolog" faxriy unvoni mamla-katimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini rivojlantirish, tabiatni asrabavaylash, biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, tabiiy resurslardan ogilona foydalanish va ularni qayta tiklash borasida salmoqli natijalarga erishgan eko-faollarga beriladi.

Shuningdek, ekologik jihatdan toza va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishda hamda amaliyotga joriy etishda, yashil hududlarni kengaytirishda va ko'kalamzorlashtirish ishlarida alohida tashabbus ko'rsatgan, aholining ekologik madaniyatini oshirish, yosh avlodni tabiatga hurmat ruvida tarbiyalash hamda tizimda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash borasida fidokorna mehnat qilayotgan mutaxassis-xodimlarga va sohaning boshqa vakillariga, shuningdek, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirayotgan ekofaollarga beriladi.

JAZO QO'LLASH BO'YICHA CHEKLOVLAR MAVJUD



Qonunchilikka ko'ra, ayollarga ayrim jazolarni qo'llash bo'yicha quyidagi cheklovlar mavjud:

Xususan, jinoi jazo tariqasida majburiy jamoat ishlari yoki axloq tuzatish ishlari homilador ayollarga, uch yoshga to'limgan bolalari bor ayollariga nisbatan qo'llanmaydi.

Bundan tashqari, homilador ayollarga va uch yoshga to'limgan bolalari bor ayollar ehtiotsizlik oqibatida yoki qasddan uncha og'ir bo'limgan jinoyat sodir etsa, ularga nisbatan ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi.

Ayolga nisbatan uzoq muddatga (20 yildan ortiq, 25 yildan ko'p bo'limgan) yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin emas.

Shuningdek, homilador ayolning jinoyat sodir etishi jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanadi.

@huquqiyaxborot



Savollarga "Madad" NNT Namangan shahar huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisi

Ilyos ABDULLAYEV
javob berdi



Bepul chiptalar qanday olinadi?

– YOLG'IZ keksalarga, nogironlariga poyezd uchun bepul chipta beriladi deb eshitdim. Ularga chiptalar qanday tartibda beriladi?

– O'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar bepul chiptani rasmiy lashirishda mas'ul xodimiga o'zining shaxsini tasdiqllovchi hujjatini ko'rsatishi shart. Chiptani olish vaqtida, shuningdek, temir yo'l yoki shaharlaro avtobusda foydalanish vaqtida shaxsni tasdiqllovchi hujjatning amal qilish muddati o'tmagan bo'lishi kerak. Amal qilish muddati o'tgan shaxsni tasdiqllovchi hujjat asosida bepul chiptalarni rasmiy lashtirishga, temir yo'l yoki shaharlaro avtobusda olib yurish xizmatlarini ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar tanloviya ko'ra temir yo'l yoki shaharlaro avtobus uchun bepul chiptalardan bir yilda faqat bir marata foydalanishi mumkin. Bunda borish

va qaytish uchun bepul chipta olishda istalgan transport (temir yo'l yoki avtobus) turidan foydalanishi mumkin.

O'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni kuzatib borayotgan bir nafer shaxs ham borish hamda qaytish uchun bepul chipta olish huquqiga ega. O'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar hamda ularni kuzatib borayotgan shaxslar to'g'risida ma'lumotlar ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan taqdim etiladi.

O'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga temir yo'l transportida bepul yurishlari uchun kupeli vagon tarifi bo'yicha chiptalar beriladi. Bunda boshqa yuqori tarifdagagi chiptalar olinganda narxlar o'rtaisdagi farq yo'lovchi va ularga hamrohlilik qiluvchi shaxslar tomonidan qoplanadi.

O'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning bepul yurishi uchun chiptalar bilan ta'minlash xarajatlari ijtimoiy himoya milliy agentligining ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanadi. Bunda bepul yurish uchun chiptalar bilan o'z vaqtida va maqsadli ta'minlash yuzasidan mas'uliyat "O'zbekiston temir yo'llari" AJ hamda shaharlaro qatnovchi avtobuslar avtovok-

zal va avtostansiyalari rahbarlari zimmasiga yuklangan.



Imtihonsiz o'qishga kirish mumkinmi?

– Muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolar davlat granti asosida imtihonsiz o'qishga qabul qilinishi mumkinmi?

– Harbiy xizmatchilar orasidan yuqori natijalarga erishgan, har bir harbiy qismidan bittadan yosh harbiy xizmatchi harbiy qism qo'mondonligi (rahbariyati) va O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tavsiyanomasiga muvofiq olyi ta'lif muassasalariga tasdiqlangan davlat granti kvotalariga qo'shimcha ravishda, imtihonlarsiz qabul qilinadi.

Yuridik yordam nima?

– Yuridik yordam nima? Shuning huquqiy mazmunini tushuntirib bersangiz?

– Har kim o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun yuridik yordam so'rab o'zi xohlagan har qanday advokatga

murojaat qilishga haqli. Ushlab turilgan shaxsga, ayblanuvchi, sudnunvchi va mahkumga advokat bilan moneliksiz va xoli uchrashish hamda undan maslahat olish uchun zarur shart-sharoit ta'minlanishi lozim.

To'lovda imtiyoz bormi?

– Abituriyentlarga davlat xizmatlari markazida davlat xizmatlari ko'rsatilgani uchun imtiyoz bormi?

– Maktab bitiruvchilari o'qishni tamomlagan birinchi yilida abituriyent bo'lsa, ulardan o'qishga hujjat topshirishda davlat xizmatlari ko'rsatilgani uchun pul undirilmaydi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan yoki to'liq davlat ta'minotidagi shaxslardan ham bunday vaqtida davlat xizmatlari ko'rsatilgani uchun to'lov undirilmaydi.

Davlat xizmati ko'rsatilgani uchun test sinovlari tashkil etilayotgan o'quv yilidan avvalgi yillarda ta'lif muassasalarini tugatgan abituriyentlardan bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida to'lov undiriladi. Bunda, davlat xizmatini olish uchun YIDXP orgali murojaat etilganda, ushbu bandning birinchi xatboshisida ko'rsatilgan to'lov summasining 90 foizi undiriladi. To'lovlar markazlarda joylashgan bank kassalari hamda markaz xodimlari tomonidan naqd va naqdsiz pul ko'rinishida qabul qilinadi. To'lovlar to'langanini tasdiqlash axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali amalga oshiriladi.

TADBIRKORLIK subyekti faoliyatini ma'lum muddatga to'xtatish jiddiy moliyaviy zararlarga sabab bo'lishi mumkin. Jumladan, ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar, xomashyo va mahsulotlarning yaroqsiz holatga kelishi, xodimlarning bekor turib qolishi oqibatida to'lanadigan mablag'larni ushbu zararlar sirasiga kiritish mumkin.

Ammo bu borada qonunchilikdagi bo'shlilqlar sababli tadbirkorlar faoliyatini to'xtatishda qonunbuzilish, shuningdek, xavf darajasi yuqori bo'lmagan holatlarda ham faoliyat cheklanishi kuzatilari edi. Xususan, so'nggi 3 yilda nazorat organlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini to'xtatish holatlari deyarli 4 baravarga oshgan. Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchı ochiq mulqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmonida barcha uchun ochiq holatda bo'ladigan Inson hayoti va sog'lig'iqa yuqori xavf soluvchi omillar reyestri yuritilishi belgilandi.

Endilikda, ya'ni 2025-yildan boshlab nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini to'xtatib turishga faqatgina reyestrga kiritilgan omillar asosida yo'l qo'yildi. Adliya vazirligi tomonidan reyestrni shakllantirish maqsadida nazorat qiluvchi organlarga o'z nazorat funksiyalari doirasidan kelib chiqib, tadbirkorlar

XAVF OMILLARI REYESTRI – YANGI MEXANIZM

faoliyatini to'xtatishga asos bo'ladigan inson hayoti va sog'lig'iqa yuqori xavf soluvchi omillar yuzasidan so'rov yuborildi. Natijada, 35 ta nazorat qiluvchi organlarning 27 tasi tomonidan tadbirkorlar faoliyatini to'xtatishga asos bo'ladigan inson hayoti va sog'lig'iqa yuqori xavf soluvchi 758 ta omilning dastlabki ro'yxati shakllantirildi.

Omillarning xavf darajasini xolisona va aniq mezonlar asosida aniqlash maqsadida reyestrga kiritilgan omillar Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan Xavfni baholash va darajasini hisoblash uslubiyoti asosida Biznes ombudsman bilan birgalikda baholab chiqildi. Natijada, tadbirkorlar faoliyatini to'xtatish uchun asos sifatida ko'rsatilgan 726 ta (95 foiz) omil reyestrdan chiqarib

tashlanib, xavf darajasi yuqori bo'lgan 32 ta omil (4 foiz) qoldirildi. Shuningdek, tadbirkorlar faoliyatini cheklash va to'xtatib turish vakolatiga ega bo'lgan nazorat qiluvchi organlar soni 27 tadan 16 taga qisqartirildi.

Ushbu xavf omillari reyestri Adliya vazirligining rasmiy veb-sahifalarida, shuningdek, new.birdarcha.uz hamda Biznes ombudsmanning "Yagona davlat nazorati" sahifasida joylashtirilgan va barcha uchun ochiq holatda yuritib boriladi. Shu bilan birga, 2025-yil 6-fevralda Vazirlar Mahkamasining "Inson hayoti va sog'lig'iqa yuqori xavf soluvchi omillar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomi tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan inson hayoti va sog'lig'iqa yuqori xavf soluvchi omillar reyestrini shakllantirish, unga yangi omillarni kiritish yoki o'z ahamiyatini yo'qotganlarini chiqarish hamda ushbu reyestrni barcha uchun ochiq holatda yuritish tartibi tasdiqlandi.

Mazkur tizim, birinchi navbatda, mamlakatda tadbirkorlarning huquqlarini kafolatlash, ular uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan bo'lib, nazorat organlari faoliyatini tartibga solishda hamda tadbirkorlik faoliyatiga davlat aralashuvini kamaytirishda muhim vosita sifatida xizmatli kutilmoqda.

Adliya vazirligi
Qonunchilikni tizimlashtirish va tartibga solish ta'sirini baholash boshqarmasi

4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

PREZIDENTNING 2024-yil 18-yanvardagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijara berish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari 2024-yil 31-dekabrga qadar o'z hududlarida yerga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan, lekin amalda foydalanib kelinayotgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan barcha yer uchastkalari bo'yicha ijara huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki yerni zaxiraga qaytarish choralarini ko'rishi belgilangan edi.

KENGASH QARORLARI BEKOR QILINDI

Andijon viloyatida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan 2024-yil 31-dekabr holatiga jami 53 ta qaror loyihalari ekspertizadan o'tkazish uchun kiritilgan bo'lib, shundan 18 tasi yuzasidan qaror loyihasining qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa taqdim qilingan xolos, 27 tasi xulosasiz, huquqiy eksperzia o'tkazilmasdan qaytarilgan, 6 tasi bo'yicha qonunchilik hujjatlariga nomuvofiqligi to'g'risida, 2 tasi bo'yicha bartaraf etilishi lozim bo'lgan kamchiliklar ko'rsatilgan holda xulosa berilgan. Bundan tashqari, 1 ta holatda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining qaror loyihasi huquqiy eksperzia o'tkazilmasdan qabul qilin-gani aniqlanib, Andijon tumanlararo ma'muriy su-dining 2024-yil 9-iyulda hal qiluv qarori bilan

xalq deputatlari Andijon tuman Kengashining 2024-yil 26-martdag'i qarori haqiqiy emas deb topilgan.

Ekspertizadan o'tkazish uchun xalq deputatlari Marhamat tuman Kengashi tomonidan kiritilgan "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar dan foydalanish holatini o'rganish natijalari to'g'risida"gi qaror loyihasini qabul qilish Namangan viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 27-dekabrdagi xulosasi bilan maqsadga muvofiq emas, deb topilgan bo'lishiga qaramasdan, Marhamat tuman Kengashi raisi tomonidan imzolangan. Ushbu qaror va yana 5 ta holatda huquqiy eksperzia chetlab o'til-gan holda qabul qilin-gan qarorlar adliya bosh-qarmasi tomonidan kiritilgan taqdimnomaga asosan tegishli tartibda bekor qilindi.

Sherzodbek G'ULOMOV,
Andijon viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi



QORAQALPOG'ISTON Respublikasi Adliya vazirligiga fuqaro Bekpulat Xudaybergenov murojaat qilib, 2007-yilda Qozog'iston Respublikasida tug'ilgan farzandi Madina Allambergenova bugungi kunga qadar tug'ilganlik haqida guvohnoma ololmayot-ganini bildirib, amaliy yordam so'ragan.

Mazkur murojaat o'rganilib, Adliya vazirligi tomonidan Minsk va Kishinyov konvensiyalariga muvofiq Qozog'iston Respublikasining Alma ata viloyati Karasay tumani FHDY bo'limiga tegishli so'rovnoma yuborilib, amaliy natijaga asosan fuqaroning o'n sakkiz yoshga kirgan qiziga tug'ilganlik haqida guvohnoma rasmiylashtirib berildi.

Arislan IXLASOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

ENDI BAHONA O'TMAYDI

IKKITA tashkilot bir-biriga qo'shilib, o'rnida yangi tashkilot tashkil etilganida, Fuqarolik kodeksining 50-moddasiga asosan "A" MCHJ va "B" MCHJning bar-cha huquqlari va majburiyatları yangi – "S" MCHJga huquqiy vorislik tartibida o'tadi. Oddiy qilib aytganda, "A" va "B" MCHJlarning qarzlari ham yangi – "S" MCHJga o'tadi. Kimningki, "A" va "B" MCHJlarda qolib ket-gan pullari yoki haqdorligi bo'lsa, bermalol ularning vorisi bo'lgan "S" MCHJdan undirib olishi mumkin.

Biroq, azaldan sudlarda, xususan, iqtisodiy sudlarda noodatiy bir amaliyat kuzatilar edi. Fuqarolik kodeksining 50-moddasida "yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo'shilganida, bu yuridik shaxsga qo'shilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq o'tadi" degan qoida bor edi. Bu qoidadagi yangi yuridik shaxsga avvalgi yuridik shaxslarning huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq o'tishi belgilangani uchun, sudlar shu jihatga alo-hida e'tibor qaratar edi. Ya'ni, aytaylik, sizning "A" MCHJda haqqingiz bor, biroq bu tashkilot "B" MCHJ bilan qo'shilib, "S" MCHJ tashkil etildi. Shunda siz pulingizni "S" MCHJdan, ya'ni huquqiy vorisdan undirish bo'yicha sudga da'vo kirtsan-giz, sudlar "sizning "A" MCHJdag'i haqqingiz "S" MCHJga qabul qilish, topshirish dalolatnomasiga asosan o'tganmi o'zi, agar dalolatnomada bilan o'tmagan bo'lsa, vaziyatingiz qiyin" deya javob berar edi. Shunda siz shuncha pulingizga kuyib qolardingiz. Aslida, sizning haqqingiz keyingi firma ga o'tishida ular o'rtasida qabul qilish va topshirish dalolat-nomasi tuzilish-tuzilmasligi umuman sizga bog'liq narsa emas. Lekin amaliyotda birgina dalolatnomada ko'rsatil-magani uchun sizga o'xshagan kreditorlarning haq-hu-quqlari buzilishiga, bu borada hatto sudlar ham hech narsa qilolmasligiga guvoh bo'lganmiz.

2025-yil 7-fevralda "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonunga asosan Fuqarolik kodeksining 50-moddasidagi "topshirish hujjatiga muvofiq" degan so'zlar "topshirish hujjatida ko'rsatilganligidan yoki ko'r-satilmaganligidan qat'iy nazar" degan so'zlar bilan o'zgar-tirildi. Endi muammo ham, bahona ham yo'q.

O'g'iloy MAMATXALIKOVA,
Guliston tuman adliya bo'limi
mas'ul xodimi

BO'ZATOV tuman adliya bo'limi tomonidan "Aspantay" ovul fuqarolar yig'inida o'tkazilgan xatlov natijasida ushbu hududda yashab kelayotgan Tazegul Madeshovaning 1993-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi hujjati mavjud emasligi bilan bog'liq huquqiy muammosi o'rganildi.

O'TTIZ IKKI YILDAN SO'NG...



O'rganish davomida fuqaro T. Madeshova 1969-yil 27-avgust kuni Turkmaniston Respublikasi, Tashavuz viloyati, Ko'na Urganch tumanida tug'ilgani, 1993-yildan buyon

HUQUQIY AKSIYA DOI-RASIDA

AYOLGA NAFAQA PULI TO'LANDI

TO'RTKO'L tumanidagi 62-sonli maxsus yordamchi maktabda ishlovchi Muborak Kurbaniyazova homiladorlik va tug'ish ta'tili nafaqa puli to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

O'rganish davomida haqiqatan ham M. Kurbaniyazovaga 27 million 776 ming so'mlik nafaqa puli to'lanmagani aniqlandi.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 404-mod dasida ayolga tug'uruqqacha 70 kalendar kun hamda tug'uruqdan keyin 56 kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoxud ikki yoki undan ortiq bola tug'ilgan taqdirda 70 ka-lendar kun) homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi hamda o'rtacha oylik ish haqining



75 foizidan kam bo'lmagan miqdorda na-faqa to'lanishi belgilangan. Shunga asosan tuman adliya bo'limi sa'y-harakati bilan xodimga nafaqa puli to'lanishi ta'minlandi.

Ilxam SATBAYEV,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti

 NOTARIUSNING asosiy vazifasi fuqarolarning huuqqlari buzilishining oldini olish va ularga tegishli bo'lgan hujjatlarning qonuniy ekanini tekshirishdan iborat.

QADRIYAT JUMBOQQA AYLANMASIN



Xalqimizda ota uyi kenja farzandga qolishi kerak, degan qadriyat bor. Ammo bu qadriyat xolos... Biroq, ba'zan olamdan o'tgan ota-onalar meros masalasida farzandlari uchun qanday jumboq tayyorlab ketishgan, bu faqat notarius va Yaratganga ayon bo'ladi. Uka uy-joyni o'z nomiga rasmiylashtirish chog'ida onaning o'z ulushini qiziga, ya'ni uning opasiga qoldirish to'g'risidagi hadya shartnomasi notarius elektron bazasida ko'ringanidan xabar topib, o'ylanib qoldi. Bu holatda opa bu hadyadan voz kechsagina, uy-joy ukaga o'tishi mumkin. Afsuski, unday bo'lmasdi. Opa validasi qoldirgan hadyani olish istagini bildirdi...

Bugungi kunda eng ko'p amalga oshiriladigan notarial harakatlardan biri – avtomashinani sotish jarayoni hisoblanadi. Endi bu masalada turmush o'rtoq'ining roziliqi to'g'risidagi arizani notarial idoraga bormasdun dunyoning istalgan joyidan turib rasmiylashtirish mumkin. Rozilik beruvchi E-notarius.uz axborot portalida "Er-xotin umumiy tasarrufidagi mol-mulkni tasarruf etishga rozilik"ni tanlaydi, o'zining shaxsiga oid ma'lumotlarni kiritadi va notarial harakatni yaratadi. Er yoki xotin qaysi avtomashinani sotishga rozilik berayotganini kiritadi. Portaldan ixtiyoriy notarius tanlanadi, notarius notarial harakatni rasmiylashtirishga qabul qilib, vaqtini belgilaydi va taraflarning mobil telefoniga

SMS xabarnoma yuboriladi. Belgilangan vaqtida notarius taraflar ishtirotida videokonferensaloqa orqali notarial harakatni rasmiylashtiradi. Ushbu notarial harakatni uydan yoki ish joyidan chiqmagan holda kompyuter yoki mobil telefon orqali 15 minutda rasmiylashtirish mumkin.

Quyidagi yangilik esa fermerlar uchun quvonchli xabar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning ijara huquqini boshqa shaxsga o'tkazish imkoniyati yaratildi. Endi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni elektron onlays-auktion vositasida olish mumkin. Oldin yerni boshqa shaxsga o'tkazish mumkin emas edi, ya'ni yer davlat tasarrufidagi davlat mulki sifatida qaralgan, uni boshqa shaxsga o'tkazish uchun fermer yerni topshirishi kerak bo'lgan. Endi esa boshqa shaxsga o'tkazishda nafaqat sotish, balki hadya qilish, ayriboshlash, umuman tekinga berish mumkin. Bu bosqichlar mexanizmi Prezidentning 2024-yil 18-yanvardagi farmonida o'z aksini topdi. Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinib, yerni sotish, boshqa shaxsga o'tkazish juda oson va hech qanday byurokratik to'siqlarsiz, murakkab jarayonlarsiz amalga oshirilishi belgilandi. Kim sotmoqchi yoki olmoqchi bo'lsa, o'zaro kelishuv qilib, notariusda tasdiqlangan bitim orqali boshqa shaxsga o'tkazish mumkin. Fuqaro uy yoki mashina sotishda qanday jarayonga amal qilsa, yer sotishda ham xuddi shunday jarayonga amal qilinadi.

Elbek MUHTDINOV,
Uchquduq tumanida xususiy
amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius

KOMPENSATSIYA TO'LASHNI UNUTGAN HOKIMLIK

 ANDIJON viloyat adliya boshqarmasi tomonidan "Dilbar savdo sanoat" mas'uliysi cheklangan jamiyatni rahbari M. Sabirovning murojaati o'rganib chiqildi.

Aniqlanishicha, tadbirkorga tegishli bo'lgan Andijon shahar, B. Turon ko'chasi "Yangi bozor dehqon bozori" hududining yerto'la qismida joylashgan 3-qator 2-sonli hamda 11-sonli savdo do'konlari Andijon shahar hokimining 2017-yil 30-maydagi 375-q-sonli qarori bilan buzilgani sababli shahar hokimligi bilan mulkdor o'tasida 2020-yilda kelishuv shartnomalari tuzilib tasdiqlangan. Hokimlik shartnomaga ko'ra, buzilgan savdo do'konlari o'rniiga shahar hududidan yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun 400,0 kv.metrdan iborat bo'lgan 2 ta yer uchastkasi ajratib berish majburiyatini olgan.

Biroq, hokimlik tomonidan hozirgi kunga qadar mazkur kelishuv shartnomalari shartlari bajarilmasdan, mulkdorda kompensatsiya sifatida yer uchastkalari ajratib berilmagani va unga yetka-zilgan zarar qoplanmagani aniqlandi.



Adliya boshqarmasi tomonidan Andijon tumanlararo iqtisodiy sudiga mulkdor manfaatida da'vo arizasi kiritilib, Andijon shahar hokimligidan "Dilbar savdo sanoat" MCHJ foydasiga buzilgan savdo do'konlari uchun kompensatsiya tariqasida 377 million 988 ming so'm undirish haqida sudning hal qiluv qarori qabul qilindi.

Shohruhbek TURSUNOV,
Andijon viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi

 SO'RAGAN EDINGIZ

RAISLIK FAOLIYATIM MAY OYIDA TUGAYDIMI?



- 2023-YIL 29-iyul kuni bo'shab qolgan o'ringa saylov orqali mahalla raisligiga saylanganman. Shunda faoliyatimni 3 yil to'lguncha, ya'ni 2026-yil 29-iyulgacha davom ettirishim mumkinmi? May oyida bo'ladigan saylovning bizning mahallaga aloqasi yo'qmi? Iltimos, shu savollarga batafsil javob bersangiz.

S. SHODIYEVA

- "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi qonunning 17-moddasiga binoan, fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lishi, qoida tariqasida, oliv ma'lumotga ega bo'lishi, bevosita saylovga qadar kamida besh yil tegishli hududda doimiy yashayotgan bo'lishi, tashkilchilik qobiliyatiga, davlat organlarida yoki nodavlat notijorat tashkilotlarida yoxud tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati sohasida ish tajribasiga, shuningdek, hayotiy tajribaga va aholi o'tasida obro'-e'tiborga ega bo'lishi kerak.

Qonunning 16-moddasiga muvofiq fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlar ko'rsatish tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikri inobatga olingan holda ishchi guruh tomonidan amalgalashiriladi.

Fuqarolar yig'ini raisi vakolati muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, tegishli fuqarolar yig'inlarida qonun talablariga rioya etilgan holda yangi saylov o'tkaziladi.

Qonunning 28-moddasiga ikkinchi qismi bo'yicha bo'shab qolgan o'rinnarga fuqarolar yig'inlari raislari besh yil muddatga saylangan. Ushbu norma 2025-yil 11-fevraldagi qonun bilan yangilandi. Shu paytga qadar mazkur muddat uch yildan iborat edi.

Bunda qonun ortga qaytish kuchiga ega emas. Qonunning 5-moddasiga asosan, qonun amalga kiritilgungiga qadar saylangan fuqarolar yig'inlari raislari o'z vakolatlarini ular saylangan uch yillik muddat tugaguniga qadar amalga oshirishi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan. Ya'ni, besh yillik muddat bundan keyingi saylanadiganlarga taalluqli.

Yuqoridaqilardan xulosa shuki, siz raislikka uch yil muddatga saylangan bo'lsangiz, muddat tugagunicha mahallangizda yangidan saylov o'tkazilmaydi (raisning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish asoslari mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno).

Sevara G'APPAROVA,
Sirdaryo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

10 YOSHDAN OSHGAN BOLANING ROZILIJI OLINADI



- FARZANDIM tug'ilganda qaynona-qaynotamning xohishlariga ko'ra ism qo'yanmiz. Qizim hozir 15 yoshda. U ismini o'zgartirib berishimizni so'rayapti. Ism o'zgartirishda otasining roziliji talab qilinadimi?

- Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi ota-onalning birgalikdagi arizasiga binoan bola o'n olti yoshga to'lguncha bola manfaatlarini e'tiborga olib, uning ismini o'zgartirishga, shuningdek, unga berilgan familiyani ham otasi yoki onasining familiyasiga qarab o'zgartirishga haqli. 16 yoshga to'lmagan bolaning ism, familiya va ota ismi ota-onasining arizasi asosida amalga oshiriladi. Bunday hollarda bola 10 yoshdan oshgan bo'lsa, uning roziliji olinadi. Bunday arizalar FHDY bo'limi tomonidan 10 kunlik muddatda ko'rib chiqiladi. Agar ota-ona alohida yasha-sa va bola bilan birga yashovchi ota (ona) bolaga o'z familiyasini berishni xohlasa, vasiylik va homiylik organi bu masalani bolaning manfaatlarini va ona (ota)ning fikrini hisobga olgan holda hal qiladi. Ota yoki onaning turgan joyini aniqlash mumkin bo'lmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda, muomalaga layoqatsiz deb topilganda, shuningdek, ota yoki ona bolaga ta'minot berish va uni tarbiyalash majburiyatlarini bajarishdan uzsiz sabablarga ko'ra bo'yin tovlagan hollarda ota yoki onaning fikrini hisobga olish shart emas.

Dilorom JO'RAYEVA,
Pop tuman adliya bo'limi 2-sonli FHDY bo'limi mudiri

6 TALQIN

Ochiqlik va shaffoflik prinsipining ta'minlanishi sud organlari faoliyatiga ham taalluqlidir. Shu o'rinda, Prezidentning "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi sudlar faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va tezkorligini ta'minlash, sudlov ishlarni yuritish sifat va aholining odil sudlovdan xabardorlik darajasini oshirish, sud xodimlari tomonidan sansalorlik, byurokratzm va suisste'molchilik faktlariga barham berishda muhim qadam bo'ldi.

Davlat tashkiloti faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash korrupsiyaning turli ko'rinishlariga chek qo'yishga ham zamin yaratadi. Shu bois, ochiqlik va shaffoflik "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunning asosiy prinsiplari sifatida e'tirof etilgan.

Davlat byudjeti mablag'larini ta'lom-toroj qilinishining oldini olish maqsadida "Davlat xaridlarini to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, unga muvofiq, quyidagi ma'lumotlarning veb-saytda (dxarid.uzex.uz) va maxsus elektron platforma axborot portalida joylashtirilishi lozimligi belgilandi: tashkilotning davlat xaridlarini o'tkazilishi, davlat xaridlarini to'g'risida"gi farmoni muhim ahamiyatga ega. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish hamda baholangan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi zimmasiga yuklatildi. Farmoniga asosan davlat tashkilotlari

 **BUGUNGI** kunda davlat tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdar shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur huquqiy asoslar yaratildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuni davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligini belgiladi.

OCHIQLIK // SHAFFOFLIK HALOL // TO'G'RI FAOLIYAT ASOSIDIR



learning samaradorligini oshirishda Prezidentning "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni muhim ahamiyatga ega. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish hamda baholangan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi zimmasiga yuklatildi. Farmoniga asosan davlat tashkilotlari

ochiqligini baholash maqsadida joriy etilgan ochiqlik indeksiga muvofiq, davlat tashkilotlari Agentlik huzurida tuziladigan komissiya tomonidan tegishlichka indikator ko'rsatkichlari bo'yicha baholananadigan bo'ldi. Ochiqliknini ta'minlashda salbiy baholangan davlat tashkiloti rahbarlariga nisbatan tegishli choralar ko'riliishi, yaxshi deb baholangan davlat tashkilotlarining mas'ul bo'lgan xodimlarini esa Agentlik tavsiyasiga muvofiq rag'batlantirish nazarda tutilgan. Xususan, 2023-yil yakunlari bo'yicha Agentlik tomonidan shakllantirilgan Ochiqlik indeksi ko'rsatkichlariga ko'ra, jami 103 ta davlat idoralari va tashkilotlari faoliyati qamrab olinib, 84 ta baholash mezonidan tarkib topgan 8 ta indikator asosida 31 ta davlat organi "yashil" (71-100 ball), 43 tasi "sariq" (55-71 ball) va 29 tasi "qizil" (55 balldan past) samaradorlik ko'rsatkichlari qayd etilgan.

Davlat tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash borasidagi ish-

O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunida ham ochiqlik va shaffoflik davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari qatorida keltirilgan. Demak, davlat tashkilotining har bir xizmatchisi fuqarolar, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash faoliyatida ana shu tamoyilga amal qilishi shart.

Davlat tashkilotlari faoliyatining ochiqligini va shaffofligi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bilan ham ta'minlanadi. Jumladan, qonunga muvofiq, budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash tartibini buzish, davlat xaridlarini amalga oshirish chog'ida maxsus axborot portaliga davlat xaridlar bo'yicha e'lonnari joylashtirish tartibini buzish (MJtK 175⁸-moddasi), davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilikni buzish (MJtK 215⁷-moddasi), bo'sh ish o'rinalarini yashirish (MJtK 229-moddasi) ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladı.

Qayd etilganlarni qisqacha sarhisob qilsak, sanab o'tilgan va boshqa normativ-huquqiy baza davlat tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik va oshkorlik prinsipini ta'minlashga xizmat qiladi va shunga mos ravishda korrupsiyaning oldini olish imkonini beradi.

Rafik SHAKUROV,
Yuristlar malakasini
oshirish markazi dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi

KORRUPSIYA TADBIRKORLIK RIVOJI VA QONUN USTUVORLIGIGA TO'SIQDIR

 "PORA beruvchi ham, pora oluvchi ham do'zaxda bo'ladi", (An-Navaviyning "Odobli imomning bog'lari" hadislar to'plamidan). "Kim bir kun davomida boyishni xohlasa, u yil davomida osiladi" (Leonardo da Vinchi). "Hokimiyatni pulga sotib olgan kishi undan foyda olishga o'rganib qoladi" (Aristotel). "Yomon siyosatchi yaxshi tadbirkorlar tomonidan buziladi" (Jozef Fok, publitsist).

Fanda taklif qilingan nazariy tushunchalarga muvofiq, korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, u odatda hukumat amaldortari, mansabdar shaxslar, jamoat va siyosiy arboblarning poraxo'rligi, sotqinligi hamda o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlab hokimiyatni suisste'mol qilishi aks etadi. Albatta, ushbu muammo va uning oqibatlari nihoyatda xavfli. Zero, korrupsiya iqtisodiyotning izdan chiqishiga olib keladi. Pora miqdorining o'sishi narx-navoni qimmatlashtirib, xizmat va tovarlar sifatini yomonlashtiradi. O'z navbatida, bunday holat taraqqiyotga jiddiy to'sqinlik qiladi. Shuning uchun sud, prokuratura va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi salohiyatini mustahkamlash masalasi ustuvor sanaladi.

Bugungi davrda korrupsiyaning poraxo'rlik, qarindosh-urug'chilik, proteksionizm, lobbizm, davlat resurslari va mablag'larini noqonuniy taqsimlash, davlat resurslarini shaxsiy maqsadlarda o'zlashtirish, noqonuniy xususiylashtirish, siyosiy faoliyatni noqonuniy qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish, tovlamachilik, imtiyozli kreditlar berish kabi keng tarqalgan shakllarini ko'rish mumkin. Shuningdek, korrupsiyning bir qator boshqa jinoyatlar, jumladan, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, odam o'g'irlash, kontrabanda

bilan ham chambarchas bog'liqligi undan ham katta xavf tug'diradi.

Jamiyat va davlatning byurokratlashuvi, boshqaruvning haddan tashqari markazlashuvi, yashirin iqtisodiyotning gullab-yashnashi, haqiqiy demokratiyani rad etish korrupsiya uchun qulay sharoitdir. Ayniqsa, korrupsiya inqirozli vaziyatlarda, ijtimoiy-siyosiy tuzumlarning yemirilishi, ijtimoiy axloqning tanazzulga uchrashi, shuningdek, siyosatdagi keskin o'zgarishlar davrida keng tarqaladi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash masalasiga jiddiy e'tibor berilayotganiga qaramay, bu illatning ko'plab sohalarda chuqur ildiz otgani amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qolaversa, davlat xizmatchilar orasida poraxo'rlikning davom etayotgani va manfaatlar to'q-nashuviga yo'l qo'yilayotgani budgetga katta miqdorda zarar yetkazmoqda. Korrupsiyadan ko'rilyayotgan zarar faqat moddiy yo'qotishlar bilangina o'lchanmaydi. U tadbirkorlik rivojiga, qonun ustuvorligiga to'sqinlik qiladi, jamiyatda ijtimoiy keskinlikni, hokimiyatga nisbatan ishonchszlikni keltirib chiqaradi.

Milliy qadriyatlarimizga qarshi qaratilgan har qanday korrupsiyaviy ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan yuksak salohiyatlari, ma'naviyat va ma'rifatli xalqimiz. Shunday ekan, yurtimizning gullab-yashnashi, taraqqiyoti yo'lida vijdoran ishslash har birimizning burchimiz bo'lsin.

Xulosa shuki, xalqimizning "Oyni etak bilan yopib bo'lmas", "Qing'ir ishning qiyig'i qirq yilda ham chiqadi" degan maqollarini unutmaylik! Korruption holatlar ham sirligicha qolmaydi, albatta, oshkor bo'ladi.

Davronbek RAVSHANBEKOV,
Xalq deputatlari
Toshkent shahar Kengashi deputati

"DEKRET" PULI UNDIRIB BERILDI

 BUXORO tumanida yashovchi fuqaro G.R. Buxoro viloyat sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasida ishlab, homiladorlik va tug'ish ta'iliga chiqqani, lekin nafaqa puli kam to'langanidan norozi bo'lib, viloyat adliya boshqarmasiga murojaat qilgan.

O'rganish jarayonida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi qarori bilan tasdiqlangan "Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalarni hamda yangi tug'ilgan bolani farzandlikka oлgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga, nafaqani tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom talablarini buzilgani, fuqaroga homiladorlik va tug'ish nafaqasi puli kam to'langani aniqlandi.

"SES" xodimining manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Buxoro tumanlararo sudiga nafaqa to'lovlarini undirish to'g'risida da'vo arizasi kiritildi. Sudning 2025-yil 20-martdag'i hal qiluv qaroriga asosan da'vo arizasi qanoatlantirilib, fuqaro foydasiga 152 million 216 ming 733 so'm moddiy zarar undirish belgilandi.

Tuyg'un AZIMOV,
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi

YANGI TAHRIRDAGI QONUN LOYIHASI ISHLAB CHIQILDI

ADLIYA vazirligi tomonidan yangi tahrirdagi “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to’g’risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur qonun loyihasi 69 ta moddadan iborat bo’lib, 4 ta qonun hujjatiga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritilmoqda, shuningdek, 2001-yil 6-dekabrda qabul qilingan “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to’g’risida”gi qonun to’liq, 23 ta qonun hujjatlaridagi ayrim normalar o’z kuchini yo’qotgan deb topilmoqda.

Qonun loyihasini ishlab chiqishda, Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti (GIZ) mutaxassislarining, tegishli idoralarning (Oliy sud, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Istiqbolli loyihamalar milliy agentligi, Savdo-sanoat palatasi, Toshkent davlat yuridik universiteti va boshqalar) hamda jamoatchilikning takliflari o’rganib chiqildi.

Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlarning ilg’or tajribasi, shu jumladan, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Qozog’iston va Qirg’iziston hamda MDHga a’zo bo’lgan boshqa davlatlarning qonunchiligi va amaliyoti o’ganildi.

Qonun loyihasi bilan Jamiyat nafaqat litsenziya, balki boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar va xabardor qilish tartibida faoliyat turlari bilan shug’ullanishi mumkinligi, jamiyatlarning filiali va vakolatxonalarini, sho’ba va qaram xo’jaliklarini ochish tartiblari alohida modda sifatida kiritilmoqda.

Jamiyat ishtirokchilariga o’z korporativ huquqlarini amalga oshirish to’g’risida korporativ shartnomalar tuzish huquqi berilmoxda.

Shuningdek, o’z hissasini to’la qo’shmagan ishtirokchilar, agar ushu harakatlar Jamiyatning faoliyat ko’rsatishiga imkon bermayotgan yoki uni

jiddiy tarzda qiyinlashtirishga olib kelsa, ijro etuvchi organining arizasi asosida sud tartibida ishtirokchilar safidan chiqarilishi mumkinligi belgilanmoqda.

Jamiyatning ixtiyoriga ko’ra, ishtirokchilar ustav fondining (ustav kapitalining) hisobi sharhnomasi asosida Qimmatli qog’ozlar markaziy depozitariysi tomonidan yuritilishi mumkinligi nazarda tutilmoqda. Jamiyat ishtirokchilarining ulushlari bilan bog’liq nizolar sud tomonidan ko’rib chiqilayotganda Jamiyat ustav fondiga o’zgartirishlar kiritish sud tartibida cheklanishi mumkinligi hamda Jamiyat ishtirokchilarining umumi yig’ilishi bayonnomasini rasmiylashtirilgandan so’ng besh ish kuni ichida yig’ilish kotibi tomonidan Jamiyat ishtirokchilarining umumi yig’ilishi bayonnomasini nusxasini barsha ishtirokchilarga pochta aloqasi yoki elektron pochta orqali yuborishi shartligi belgilanmoqda.

Jamiyat kuzatuv kengashining vakolatlari hamda kengash a’zolarini saylash tartibi belgilanib, Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi va ularning majburiyatları aniqlashtirilmoqda, Jamiyatning minoritar ishtirokchilar qo’mitasi tashkil etilishiga oid qoidalar taklif etilmoqda, Jamiyatning affillangan shaxslari hamda affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzishga oid qoidalar alohida bob sifatida belgilanmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi MCHJ ishtirokchilar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatlarini yanada mustahkamashga, ulushlarning allov va (yoki) firibgarlik yo’li bilan o’zlashtirilishiga yo’l qo’ymasligini ta’minlashga huquqiy asos bo’lib xizmat qiladi.

**Ilhomjon ABDUSATTOROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
bo’lim boshlig’i**

Sudgacha sanatsiya jarayonini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash iqtisodiy bargarorlikni saqlash va korxonalarining tiklanishi ga ko’maklashishning samarali yo’lidir. Moliyaviy va huquqiy yordam mexanizmlarini rivojlantirish orqali korxonalarini inqirozdan chiqarish, ularning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va umumi iqtisodiy rivojlanishga hissa qo’shish mumkin. Shu bois, davlat tomonidan sudgacha sanatsiya jarayonlarini qo’llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo’lib qolmoqda.

Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko’rsatgan holda o’tkazishda turli xilda ko’mak ham berib boriladi. Jumladan, to’lovga qobiliyatsizlik alomatiga ega bo’lgan korxonaga xizmat ko’rsatuvchi bankda ilgari amal qilgan hisobvaraqlari to’xtatilgan holda sanatsiya hisobvarag’ini ochishga ruxsat beriladi. Tijorat banklaridan kredit olishda yoki kreditorlar bilan kelishuv davrida kafilliklar berish shaklida moliyaviy yordam ko’rsatish, xalqaro moliya institutlari va xorijiy moliya tashkilotlari bilan korxonalarini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish, ularga texnik va maslahat ko’magi ko’rsatilishini tashkil etish bo’yicha o’zaro hamkorlik qilish nazarda tutilgan. Foydalanilmayotgan asosiy vositalarni va qurilishi tugallanmagan obyektlarni

SUDGACHA SANATSIYA BU QANDAY TIZIM?

SUDGACHA sanatsiya – bu muammoli moliyaviy holatda bo’lgan korxonalarga bankrotlik jarayoniga o’tib ketishining oldini olish uchun qo’llaniladigan iqtisodiy va huquqiy chora-tadbirlardir. Ushbu jarayon davomida kompaniyaning moliyaviy holati tahlil qilinib, qarzlarni restrukturizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb qilish va boshqa tiklov choralarini amalga oshirish nazarda tutiladi.

konservatsiya qilish ham talab etiladi.

Amaldagi qonunchilikka ko’ra, To’lovga qobiliyatsizlik alomati mavjud bo’lgan korxonani sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko’rsatgan holda o’tkazish to’g’risidagi qarorni Davlat aktivlarini boshqarish agentligi qabul qiladi. To’lovga qobiliyatsizlik alomati mavjud bo’lgan korxonani davlat tomonidan yordam ko’rsatgan holda sudgacha sanatsiya qilish to’g’risidagi murojaatni ushbu korxona rahbari yoki uning nomidan murojaat qilish huquqiga ega bo’lgan shaxs Agentlikka taqdim etadi. Bunda korxona mazkur xizmatdan foydalanish uchun davlat xizmatlari markaziga o’zi kelib murojaat qiladi yoki davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish uchun O’zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanadi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilinganda, murojaat avtomatik tarzda Agentlikka yuboriladi. Agentlik bir oy muddatda to’lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud korxonaning murojaatini va unga ilova qilingan, ushbu Nizomning 16-bandida nazarda tutilgan hujjatlarini ko’rib chiqib, kreditorlarga to’lanadigan to’lovlar muddatini kechiktirish va (yoki) uni bo’lib-bo’lib to’lash yoxud qarzlardan chegirma berish to’g’risida qarzdor hamda kreditorlar o’tasida kelishuvga erishishga qaratilgan bitimlar, soliq va boshqa vakolatlari organlarning qarorlari asosida korxonaga nisbatan sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko’rsatgan holda o’tkazishni joriy etish to’g’risida qaror qabul qiladi.

**Hakimjon ABDUKADIROV,
Uzun tuman adliya bo’limi
davlat xizmati markazi
direktori**

E’LONLAR

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan joriy yilning 12-mart kuni Qarshi shahar “SAMIYEV GENNADIY HIMOYASI” advokatlik byurosini advokati Samiyev Gennadiy Sattorovichning vafot etgani munosabati bilan unga boshqarma tomonidan 2023-yil 19-oktabrda berilgan L-70661775-reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi litsenziyasini hamda advokatlik maqomi tugatildi.

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan joriy yilning 14-mart kuni Qarshi tumani “AL-ASADBEK ISHONCH” advokatlik byurosini advokati To’raqulov Allanazar Toshovichning o’z arizasiga asosan unga boshqarma tomonidan 2023-yil 24-oktabrda berilgan L-70661864-son reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi litsenziyasini hamda advokatlik maqomi tugatildi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil 17-martdagagi 51-um-sonli buyrug’iga asosan, advokat Asilov Dilshod Buyukovichga 2022-yil 16-sentabrda berilgan L-70664728-sonli advokatlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining hamda 2024-yil 17-yangarda berilgan 004489-sonli advokatlik guvohnomasining amal qilishi advokatlik tuzilmasi tashkil etilgunga qadar yoxud mavjud advokatlik tuzilmalaridan biriga ishga kirmagani sababli tugatildi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil 17-martdagagi 50-um-sonli buyrug’iga asosan, advokat Quziyev Maxtumquli Ikromovichga 2024-yil 28-martda berilgan L-70665319-sonli advokatlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi litsenziyasini hamda 2024-yil 16-aprelda berilgan 005234-sonli advokatlik guvohnomasining amal qilishi o’z arizasiga muvofiq tugatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzurida malaka komissiyasining 2025-yil 14-martdagagi 10/2025-soni yig’ilish qarori va Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil 17-martdagagi 78-um-sonli buyrug’iga asosan boshqarma tomonidan Toshkent tumanida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Musakova Zulfija Usmanovnaga 2020-yil 20-aprelda berilgan TS 0005 raqamli xususiy notarial faoliyat bilan shug’ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 2025-yil 20-mart kunidan 1 (bir) oy muddatga to’xtatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzurida malaka komissiyasining 2025-yil 14-martdagagi 11/2025-soni yig’ilish qarori va Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil 17-martdagagi 77-um-sonli buyrug’iga asosan boshqarma tomonidan Bo’stonliq tumanida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Duyzenova Zemzegul Anarkulovnaga 2020-yil 20-aprelda berilgan TS 0018 raqamli xususiy notarial faoliyat bilan shug’ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 2025-yil 20-mart kunidan 15 (o’n besh) kun muddatga, agar 15 kunda bartaraf etilmasa, bartaraf etilgungina qadar to’xtatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzurida malaka komissiyasining 2025-yil 14-martdagagi 12/2025-soni yig’ilish qarori va Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil 17-martdagagi 76-um-sonli buyrug’iga asosan boshqarma tomonidan Bo’stonliq tumanida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Xalilova Moxichehra Ergashovnaga 2020-yil 29-aprelda berilgan TS 0086 raqamli xususiy notarial faoliyat bilan shug’ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 2025-yil 20-mart kunidan 15 (o’n besh) kun muddatga, agar 15 kunda bartaraf etilmasa, bartaraf etilgungina qadar to’xtatildi.

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-martdagagi qarori bilan tasdiqlangan “Xususiy notarial faoliyat bilan shug’ullanuvchi notariuslarni hisob ro’yxatiga olish tartibi to’g’risida”gi Nizomga muvofiq, boshqarmaning 2025-yil 24-martdagagi buyrug’iga asosan Kogon shahrida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Aminov Abduaizam Aminovichga tegishli bo’lgan litsenziya asosan qilishi va maqomi o’z arizasiga asosan tugatildi.

8 KO'ZGU

ONA zamin – bebaño ne'mat, Yer esa umummiliq boylik hisoblanadi. Yerdan foqdalanish va xususiylashtirishning o'ziga xos tartib-taomillari aniq belgilangan bo'lishiga qaramasdan, qonun talablarini chetlab o'tib, yerkarni o'zboshimchalik bilan egallab olish holatlari, afsuski, hali hamon uchrab turibdi.

HAR QARICH YERNING HISOBI BOR!

Kadestr agentligi Toshkent shahar boshqarmasi xodimlari tomonidan 2025-yilning 1-mart holatiga poytaxtimiz hududida amalga oshirilgan yer va kadastr nazorati tadbirlari natijasida 737 ta holatda 10,5 hektar yerni o'zboshimchalik bilan egallab olish bo'yicha huquqbazarliklar aniqlandi. Shundan aholi punkti yerlarida 734 ta, sanoat, transport, aloqa mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlarda 2 ta va suv fondi yerlarda 1 ta qonunbazarlik holati qayd etildi.

Tahillarga ko'ra, eng ko'p yerga oid huquqbazarlik Sergeli (91 ta holatda 2,4 hektar),

Yashnabob (83 ta holatda 0,6 hektar), Uchtepa (75 ta holatda 2,6 hektar), Yunusobod (71 ta holatda 1,1 hektar) va Olmazor tumani (70 ta holatda 0,8 hektar) hissasiga to'g'ri keladi.

Umummiliy boylikka nisbatan g'ayriqonuniy munosabatda bo'lgan huquqbazarlar bilan olib borilgan tushuntirish ishlari, berilgan yozma ko'r-satmalar asosida 457 ta holatda 3,8 hektar yer

qonunbuzilish holati fuqarolar tomonidan ixtiyoriy ravishda bartaraf etilib, o'zboshimchalik bilan egallangan yer maydoni asl holatiga qaytarildi.

O'zboshimchalik bilan egallangan 1,6 hektar yer maydonlarida qurilgan noqonuniy qurilmalarni buzdilish yuzasidan sudlarga 83 ta da'vo arizalar kiritildi. Huquqbazarlik holatida jinoyat alomatlar mavjud bo'lgan 11 ta ish materiali o'rnatilgan tartibga muvofiq prokuratura organlariga yuborildi.

Yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga, tavakkalchilik asosida qurilish ishlarini amalga oshirishga bo'lgan urinishlar bilan aslo murosa qilib bo'lmaydi. Bunday holatlar huquqbuzarni javobgarlikka yetaklaydi. Yer maydonlarini o'zboshimchalik bilan egallah va unda noqonuniy qurilishlar qurib olgantlik uchun qonunchiligidan ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan. Shunday ekan, o'zboshimchalik bilan qilingan harakat ertaga og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini aslo unutmang!

Shiddatbek ABDUG'AFFOROV,
Kadestr agentligi
Toshkent shahar boshqarmasi
boshlig'i o'rinnbosari

SHIFOKOR QABULIDA

– Suhbatimiz avvalida pnevmaniyaning kelib chiqish sabablari haqida gapirib bersangiz? Pnevmaniya o'zi nima? Uni boshqa nafas yo'lli kasalliklaridan qanday farqlash mumkin?

– Pnevmaniya o'pkaning yallig'lanshisi bilan kechadigan kasallikdir. U xalq tilida zotiljam deb ham aytildi. Bunday infektion kasalliklar ba'zan mustaqil holda kechsa, ba'zan kasallik asorati hisoblanadi. Ko'pchilik bemorlar yuqumlimi yoki yuqmaydigan kasallikmi, degan xavotir bilan murojaat qilishadi. Pnevmaniya odamdan odama yuqmaydi. Pnevmaniyaning streptokoklar, stafilokoklar va viruslar qo'zg'atadi. Ish tajribadan kelib chiqib ayta olamanki, organizmning immuniteti yuqori bo'lsa, kasallik tanada paydo bo'lganida ham, uning rivojlanishi va yuqish xavfi pasayadi. Sababi, pnevmaniyaning yuzaga kelishi va rivojlanishiga organizmning ichki zaharlanishi, intoksikatsiya va insonning kasallikka qarshi kurashish qobiliyatini susaytiruvchi turli omillar bosh sababchidir. Qolaversa, qattiq sovqotish, jismoniy va ruhiy toliqish kuchayishi ham qo'shimcha sabablar sanaladi. Oqibatda, yuqori nafas yo'llaridagi mikroblar faollandishib, pnevmaniya paydo bo'ladi. Isitma, yo'tal, balg'am chiqarish, ishtahaning yo'qolishi, holsizlik, nafas qisilishi, tez-tez nafas olish, ko'krak qismidagi va tananoring orqa tomonidagi og'riqlar pnevmaniya belgilardir. Immuniteti past odamda kasallik belgilari tez paydo bo'ladi.

– Shamollash bilan pnevmaniyaning farqi nimada?

– Umumiy shamollash belgilari ko'pchilikka ma'lum. Pnevmaniyanada belgilari ham o'ziga xos. Pnevmaniya yuqori nafas yo'llari kasal-

PNEVMANIYA QANDAY KASALLIK?

KEYINGI yillarda ekologik muvozanatning buzilishi, havoning iflosolanish darajasi ortishi natijasida ko'pgina kasalliklar kelib chiqmoqda. Ushbu kasalliklar ichida tashxis qo'yilishi ancha murakkabi pnevmaniyadir. Har yili dunyoda 450 millionga yaqin odam pnevmaniya bilan kasallanadi. Pnevmaniya bilan og'rigan bemorlarning taxminan 4 millioni shu kasallik sabab hayotdan ko'z yumadi. Bemorga to'g'ri tashxis qo'yish va davolash ancha murakkab jarayon. Shifokor qabulidagi suhbatimiz shu mavzuda bo'ldi. Yangiyer shahar tibbiyot birlashmasi boshlig'inining davolash ishlari bo'yicha o'rinnbosari Haydarqul Akramov ish tajribasidan kelib chiqib, gazetxonlarimiz uchun kerakli maslahatlar berdi.



liklaridan keyingi asorat sabab tez rivojlanadi. Uning eng birinchi simptom shuki, avvalo, tanada oddiy shamollash yoki boshqa nafas yo'lli kasalliklari infeksiyalari bilan kechadigan shamollash yoki gripp paydo bo'ladi. Xavfli tomoni shundaki, tana infeksiyasiga qarshi kurashtayotganda, burun-halqumda yashovchi viruslar yoki bakteriyalar o'pkagacha kirib boradi.

Shamollash xuddi yangidan, noxush alomatlar bilan qayta boshlaganga o'xshaydi. Agar umumiy shamollashga gumon qilinib, boshqa qo'shimcha alomatlar qo'shilsa, unda hushyor bo'lib, darhol shifokor qabuliga borish zarur.

E'tibor bering, pnevmaniyada isitma umumiy shamollaishga qaragannda ancha yuqori harorat bilan o'zini namoyon etadi. O'RVIda harorat taxminan 38 gradusgacha ko'tariladi, gripp bilan 38-39 gradusgacha kuchayadi. Pnevmaniya esa, harorat xavfi kuchli bo'ladi, 40 gradusni tashkil etadi. Bu jarayon varaja tutishi bilan kechadi. Ishtaha butunlay yo'qoladi. Bemorda ishtahaning qanday bo'lishi kasallikning og'ir-yenigilli bilan bog'liq bo'ladi.

Pnevmaniyaning yana bir belgisi – bemor o'zini juda charchagan holatda his qiladi.

– Pnevmaniyaning qanday turlari bor?

– Pnevmaniyaning turlari kasallikning kechish xususiyatiga qarab, o'tkir va surunkali bo'lishi mumkin. Bunda kasallikning qanday kechishi o'pkaning zararlanishiga qarab belgilanadi. Masalan, o'pkaning butun bir bo'lagi zararlanishi, o'choqli yoki bronxopnevmaniya bir-biridan farq qiladi. Kasallikning o'tkir formasi to'satdan boshlanib, bir necha kundan bir necha haftagacha cho'zilishi mumkin. Zotiljam bilan og'rigan bemor

aksariyat hollarda butunlay sog'ayib ketadi.

Surunkali o'tkir zotiljam buruning yondosh bo'shilg'ida infektion jarayonlar kechganda paydo bo'ladi. Organizmning quvvatsizligi, havoda zararli gazlarning ko'pligi, surunkali infeksiyalar kabi omillar ham kasallikning kelib chiqishida muhim rol o'ynaydi. Kasallik kuchaygan holatda bemor qattiq hansiraydi, ko'krakda og'riq paydo bo'ladi. Harorat keskin ko'tariladi. O'pka faoliyati yetishmovchiligi va yurak-qon tizimida ikkinchi patologik o'zgarishlar paydo bo'ladi.

– Pnevmaniya belgilari paydo bo'lganida bemor qaysi shifokorga murojaat qilishi kerak?

– Bemorda yuqorida aytib o'tganimizdek belgilari paydo bo'lsa, zdullik bilan terapevt yoki pulmonolog vrach qabulida bo'lishi kerak. Ayniqa, boshqa surunkali kasalliklari bor bemorlar hushyor bo'lishi kerak. 60 yoshdan oshganlar, 2 yoshgacha bo'lgan bolalar, surunkali o'pka kasalliklari, astma, diabet, jigar, buyrak, qon tomir tizimi bilan bog'liq muammolari bo'lganlar, chekkuchilar xavf ostidagi toifaga kiradi. Tibbiyotda shunday oltin qoida bor: kasallikni davolashdan ko'ra uning oldini olgan afzal! Shunday ekan, sog'lig'imizni asrash o'z qo'limizda ekanini bir lahma unutmaylik.

Gulijahon ASHUROVA
suhbatlashdi